



*2024- yil yanvar-mart oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1181,5 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 205,1 mln. AQSH dollariga yoki 14,8 %ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 181,5** -14,8 %

(2023- y.: **1 386,5**)



Saldo

2024- y.: **-371,5** (2023- y.: **-491,1**)




Ekspart

2024- y.: **405,0** -9,5 %

(2023- y.: **447,7**)

TSA'dagi ulushi, % da

34,3



Import


2024- y.: **776,5** -17,3 %

(2023- y.: **938,8**)

65,7



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 405,0 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,5 %ga kamaydi) va import hajmi 776,5 mln. AQSH dollariga (17,3 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -371,5 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.













**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
(2024- yil yanvar-mart mln. AQSH dollari)

XXR	Rossiya	Qozog‘iston	Turkiya	Italiya
TSA – 327,3	TSA – 311,0	TSA – 142,7	TSA – 93,4	TSA – 38,0
Eksport: 113,1 Import: 214,2	Eksport: 133,0 Import: 178,0	Eksport: 21,8 Import: 120,9	Eksport: 47,6 Import: 45,8	Eksport: 4,7 Import: 33,3
 27,7 %	 26,3 %	 12,1 %	 7,9 %	 3,2 %
Belarus	Germaniya	Tojikiston	Afg‘oniston	O‘irg‘iz Respublikasi
TSA – 30,5	TSA – 26,7	TSA – 16,2	TSA – 16,1	TSA – 11,4
Eksport: 4,4 Import: 26,1	Eksport: 1,7 Import: 25,0	Eksport: 10,3 Import: 5,9	Eksport: 16,0 Import: 0,1	Eksport: 6,8 Import: 4,6
 2,6 %	 2,3 %	 1,4 %	 1,4 %	 1,0 %




YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari)

	Davlatlar	2023- y.	2024- y.
	XXR	249,6	327,3
	Eksport	52,1	113,1
	Import	197,5	214,2
	Rossiya	332,4	311,0
	Eksport	128,5	133,0
	Import	203,9	178,0
	Qozog'iston	223,0	142,7
	Eksport	18,3	21,8
	Import	204,7	120,9
	Italiya	14,0	38,0
	Eksport	3,8	4,7
	Import	10,2	33,3
	Turkiya	156,6	93,4
	Eksport	117,8	47,6
	Import	38,8	45,8
	Germaniya	36,7	26,7
	Eksport	3,3	1,7
	Import	33,4	25,0
	Belorussiya	31,7	30,5
	Eksport	4,2	4,4
	Import	27,5	26,1
	Afg'oniston	10,0	16,1
	Eksport	9,8	16,0
	Import	0,2	0,1
	Tojikiston	19,5	16,2
	Eksport	8,6	10,3
	Import	10,9	5,9
	Qirg'iziston	15,2	11,4
	Eksport	9,1	6,8
	Import	6,1	4,6




**HUDUDLAR KESIMIDA
TASHQI SAVDO AYLANMASI**
*(2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)**





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,6 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,9 %ga kamaydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,1 %ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 55,4 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-mart oylarida 526,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 183,2 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 343,7 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, %da)

Rossiya – 27,7		Qozog'iston – 12,1	
Belarus– 2,6		Qirg'iz Respublikasi – 1,0	
Turkmaniston – 0,7		Tojikiston– 1,4	
Ozarbayjon – 0,3		Ukraina – 0,4	
Armaniston – 0,0		Moldova – 0,0	



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (27,7%), Qozog'iston (12,1%) hamda Belarus (2,6%) davlatlari bilan qayd etildi.



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 401 taga yetdi va ular tomonidan 405,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 9,5 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart ulushi %da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	447,7	405,0	99,3	90,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	46,5	41,8	120,6	89,9	10,4	10,4
Ichimliklar va tamaki	1,4	1,4	2,3 m.	96,3	0,3	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	9,8	15,9	50,1	162,4	2,2	3,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	1,0	3,6	4,5 m.	3,8 m.	0,2	0,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	2,4	0,0	0,0	0,0	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	19,6	23,3	176,0	118,8	4,4	5,7
Sanoat tovarlari	298,8	238,6	92,3	79,8	66,7	58,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	9,7	14,8	104,4	153,0	2,2	3,6
Turli xil tayyor buyumlar	60,2	62,3	134,0	103,5	13,4	15,4
Xizmatlar	0,7	0,9	27,4	126,3	0,2	0,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 %ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (58,9%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,4%) va turli xil tayyor buyumlar (15,4%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)

2024- yilning yanvar-mart oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 %ga ko'paygan.



2024- yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,6 %ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, mln.AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oyida 34,2 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 14,7 mln. AQSh dollariga teng 31,0 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 3,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 1,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 17,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-mart, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
1,9 ming tonna
3,2 mln. AQSH
dollari


Uzum
1,1 ming tonna
1,5 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g'oqlar
0,2 ming tonna
0,4 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
31,0 ming tonna
14,7 mln. AQSH
dollari




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI


 2024- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 776,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 82,7 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,5%), sanoat tovarlari (13,1%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,7%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart, ulushi, %da)




 Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 162,4 mln. AQSH dollariga kamaydi va 776,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,3 mln. AQSH dollariga yetdi.




TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nis- batan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	938,8	776,5	105,1	82,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	169,4	162,8	103,9	96,1	18,1	21,0
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,9	138,2	80,7	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	167,0	51,3	136,6	30,7	17,8	6,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	91,3	80,7	3,5 m.	88,3	9,7	10,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	22,9	20,1	199,6	87,7	2,4	2,6
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	87,3	75,2	89,8	86,2	9,3	9,6
Sanoat tovarlari	121,8	101,9	67,2	83,7	13,0	13,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	257,9	244,3	109,3	94,7	27,5	31,5
Turli xil tayyor buyumlar	18,2	14,5	48,9	79,6	1,9	1,9
Boshqa tovarlar	0,6	23,5	33,2	37,0 m.	0,1	3,0
Xizmatlar	1,3	1,3	8,1	102,3	0,1	0,2

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 44,3 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,1 %ga kamaydi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi)



 2024- yil yanvar-mart oyida yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Italiya, Turkiya, Germaniya va Belarus) jami importning 82,9 %ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.